

MARKAZIY OSIYO - ENG QADIMGI DAVR ELCHILIK ALOQALARI MARKAZI SIFATIDA.

Davronov Otabek Ulug'bek o'g'li

Buxoro davlat universiteti Yuristprudensiya va ijtimoiy siyosiy fanlar kafedrası
assistent o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11543648>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo xalqlarining dastlabki davlat birlashmalar sifatida xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yganligi va o'zaro elchilik almashinuvlarini amalga oshirganligi hususida o'sha davr muarrixlari tomonidan yozilgan jumladan Ktesiy Knidskiy, Gerodotning ma'lumotlar va boshqa manbalar asosida ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan miloddan avvalgi I ming yillik birinchi yarmidayoq "Avesto"da diplomatik munosabatlarning paydo bo'lishi haqida ma'lumotlar mavjud. Markaziy Osiyo xalqlarining Midiya va Ossuriya bilan bog'liq munosabatlari va undan keying miloddan avvalgi VI asr ikkinchi yarmidan boshlab ahamoniylarning kirib kelishi natijasida Ahamoniylar imperiyasi bilan olib borgan elchilik almashinuvi va uning natijalari hususida; Miloddan avvalgi 330-327 yillarda Aleksandr Makedonskiyning Markaziy Osiyoga bosqinchilik yurishlari va bu davrdagi diplomatik munosabatlar hususida fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Avesto, diplomatik munosabat, elchilik, Midiya, Ossuriya, Ktesiy Knidskiy, Baqtriyani, Kiaksar, saklar, Zarina, Kir II, Parfiya, So'g'diyona, Marg'iyona, Xorazm, Kir II, To'maris, massaget, Aleksandr Makedonskiy, skif, Farasman

CENTRAL ASIA AS AN EMBASSY COMMUNICATION CENTER OF THE OLDEST PERIOD.

Abstract. This article provides information on the fact that the peoples of Central Asia established international relations as the first state associations and carried out exchanges of embassies based on information written by historians of that time, including Ctesius Knidsky, Herodotus and other sources. In particular, there is information about the emergence of diplomatic relations in "Avesta" as early as the first half of the first millennium BC. Regarding the relations of the peoples of Central Asia with Media and Assyria and then the exchange of embassies with the Achaemenid Empire as a result of the entry of the Achaemenids from the second half of the 6th century BC and its results; In 330-327 BC, Alexander the Great's invasion campaigns to Central Asia and diplomatic relations during this period are discussed.

Key words: Central Asia, Avesta, diplomatic relations, embassy, Media, Assyria, Ctesius of Knidsky, Bactrian, Kiaxar, Sakas, Zarina, Cyrus II, Parthia, Sogdiana, Margyona, Khorezm, Cyrus II, To'maris, Massaget, Alexander the Macedonian, Scythian, Farasman

ЦЕНТРАЛЬНАЯ АЗИЯ КАК ПОСОЛЬСКИЙ ЦЕНТР СВЯЗИ ДРЕВНЕЙШЕГО ПЕРИОДА.

Аннотация. В данной статье на основании сведений, написанных историками того времени, в том числе Ктесием Книдским, Геродотом и другими источниками, приводятся сведения о том, что народы Средней Азии устанавливали международные отношения как первые государственные объединения и осуществляли обмен посольствами. В частности, в «Авесте» имеются сведения о возникновении дипломатических отношений еще в первой половине первого тысячелетия до нашей эры. По поводу отношений народов Средней Азии

с Мидией и Ассирией и затем обмена посольствами с империей Ахеменидов в результате вступления Ахеменидов со второй половины VI в. до н. э. и его результатов; В 330-327 гг. до н. э. обсуждаются вторжения Александра Македонского в Среднюю Азию и дипломатические отношения в этот период.

Ключевые слова: *Средняя Азия, Авеста, дипломатические отношения, посольство, Мидия, Ассирия, Ктесий Книдский, Бактрий, Киаксар, Саки, Зарина, Кир II, Парфия, Согдиана, Маргиона, Хорезм, Кир II, Томарис, Массaget, Александр Македонский, Скиф, Фарасман*

Kirish: Markaziy Osiyoning qadimgi davlatlari o'rtasidagi diplomatik aloqalar tarixi yetarli darajada o'rganilmagan sohalaridan biri hisoblanadi. Muammoning asosiy sababi bu boradagi izlanishlarning nihoyatda kamligidir.

Asosiy vazifasi bu sohaga oid tadqiqot hioblanmasa-da, B.A.Litvinskiy "Tojik xalqining tarixi" asarining ba'zi boblarida qisman to'xtalib o'tgan. Lekin boshqa izlanishlarning yo'qligi masalani butunicha o'rganish imkonini bermaydi. Biz ushbu muammoni hal qilish uchun yunon-rim manbalariga asoslansak, to'g'ri yo'ldan ketgan bo'lamiz. Chunki, u manbalarda masalaga qisman to'xtalib o'tilgan bo'lsa-da, diplomatik aloqalarni davrma-davr o'rganish imkonini beradi.

Miloddan avvalgi I ming yillik birinchi yarmidayoq "Avesto"da diplomatik munosabatlarning paydo bo'lishi haqida ma'lumotlar mavjud. O'sha davrdagi qabilalar o'rtasidagi kelishuvlar va harbiy qarama-qarshiliklar Mitra xudosining asosiy faoliyati sifatida namoyon bo'ladi.

"Avesto"ning qadimiy qismlaridan - Mixr Yashta (Mitra gimni), oliy xudo Axuramazda, payg'ambar Spitoma Zaratushtraga qarata quyidagicha so'zlaydi: Mamlakatni so'zini tutmagan odamlar buzadi. U yuzta qabih odamning qilig'idan ham yomondir. Sen Spitomaga bergan so'zingni ustidan chiq. Boshqa yolg'onchilarning gapiga ishonma. To'g'riso'z va taqvodor odamga ishon (I.Stebлина-Kamenskiy tarjiması). "Avesto"da Mitra xudosi rahnamoligida qabilalar o'rtasidagi munosabatlarga oid boshqa ma'lumotlar ham mavjud¹.

Markaziy Osiyo xalqlarining Midiya va Ossuriya bilan munosabatlari mil. avv. IX asrga borib taqaladi². Aftidan, miloddan avvalgi IX asrdan boshlab Kavkaz va Markaziy Osiyo hududi orqali Eron qabilalarining hozirgi Eron hududiga migrasiyasi boshlanadi. Bu yerda ular bir qancha qabilalar ittifoqini tuzadilar. Ulardan dastlabkisi Parsua Eron hududining shimoliy-G'arbiy va Eronning janubiy-G'arbiy hududida Midiya davlatidir³.

Midiya davlatining ilk hukmdori Deyok ismli shaxs bo'lib, davlatning eng rivojlangan davri Kiaksar (miloddan avvalgi 625-585-yy.) hukmdorligiga to'g'ri keladi. Kiaksar davrida Ossuriyaning bir qismi, shimoliy Mesopotamiya, Girkaniya, Parfiya, Areya, shu bilan birgalikda balki So'g'dning bir qismi va Markaziy Osiyoning janubiy qismi ham bosib olinadi.

¹ Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. Ташкент. 2005. -С.109.

² История международных отношений. Под редакцией О.А.Колобова. Н.Новгород. Т. 1. 2001. С.257.

³ Крушкoл Ю.С. қадимги дунё тарихи. Тошкент. "Ўқитувчи". 1974. Б. 288.

Ktesiy Knidskiyning ma'lumotiga ko'ra, u Baqtriyani bo'ysundirgan bo'lsa-da, bu ma'lumot shubhalidir. Aniqrog'i, Hindiston podsholigi chegarasi midiyaliklarning sak qabilalari bilan to'qnashgan Amudaryoning shimoliy-sharqiy tarafi bilan chegaralangandir.

Ktesiy ma'lumotiga ko'ra, Kiaksar bilan tenglashtirilgan hukmdor Astiabar davrida parfiyaliklar qo'zg'olon ko'taradilar va Midiyadan ajralib chiqadilar. Parfiyaliklarga malika Zarina boshchiligidagi saklar yordamga keladi. Midiyaliklar va parfiyaliklar o'rtasida bir necha yil davom etgan kurash natijasida parfiyaliklarning nomigagina Midiyaga qaramligi haqida shartnoma tuzish bilan tugallanadi. Aslida esa parfiyaliklar o'zlarining amaldagi hududlarini saqlab qoladilar⁴.

Shunday qilib, bu shartnoma Markaziy Osiyoning Miloddan avvalgi VII asr oxiri –VI asr boshidagi tarixiga oid dastlabki shartnoma edi.

Ktesiy esa bu haqida boshqacharoq ma'lumot qoldiradi. Unga ko'ra, Zarina o'z eri Kidrey vafotidan so'ngra, Parfiya hukmdori Mermerga turmushga chiqadi. Shundan so'ng parfiyaliklar Striang boshchiligidagi midiyaliklarga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Jangda Zarina yarador bo'ladi va asir olinadi. Ammo Striang Zarinani kechiradi. Keyinchalik Mermer Striang qo'shinlarini yengadi va asir oladi, uni o'ldirishga qaror qiladi. Lekin Zarina nafaqat asirlarni ozod qiladi, Mermerni o'ldiradi. Shundan so'ng Zarina midiyaliklar bilan do'stlik haqida sulh tuzadi.

Unga ko'ra, Parfiya viloyatini beradi. Bu ma'lumotlar Markaziy Osiyoda Ahamoniylar hukmronligiga qadar ham Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda xalqaro aloqalar mavjud bo'lganligini ko'rsatadi⁵.

Miloddan avvalgi VI asr ikkinchi yarmidan Markaziy Osiyoning G'arbiy viloyatlari Ahamoniylar imperiyasi tarkibiga kiritiladi. Miloddan avvalgi 559-530 yillarda hukmronlik qilgan Kir II dastlabki yurishlari natijasida Baqtriya, Parfiya, So'g'diyona, Marg'iyona va Xorazmni bosib olib, imperiya asoschisiga aylanadi. Ahamoniylar chegaralarining shimoliy-sharqiy hududlar tomonga qarab kengayishi kuchli sak-massaget ittifoqi bilan to'qnashuvni keltirib chiqaradi. Shuning uchun o'z chegaralarini daxlsizligini saqlashni istagan Kir II hukmronligining so'nggi yillarida Sirdaryo va Amudaryoning quyi oqimida joylashgan sak-massagetlariga qarshi yurish qilishga qaror qiladi. Gerodotning ma'lumot berishicha, yurishdan oldin Kir II va To'maris o'rtasida og'zaki elchiliklar almashinadi.

Jangdan oldingi o'zaro elchilar almashinuvida Kir To'marisni o'ziga turmushga chiqishni taklif etadi. Ammo To'maris uning hiylasini o'z vaqtida anglab yetadi va taklifni rad qiladi.

Shundan keyin, Kir II Araks (Amudaryo)ni kechib o'tib, harbiy harakatlarini boshlaydi.

Bu harbiy harakatlarga qarshi To'maris Kir II ga harbiy harakatlarni to'xtatib, o'z yurtiga qaytib ketishini va massagetlarni o'z holiga qo'yishni taklif qiladi. Shu bilan birgalikda, To'maris bu maslahatga amal qilishni xohlamagan taqdirda, Kir II o'z armiyasini olib uch kunlik yo'lga chekinib turishni, u esa o'z qo'shini bilan daryoni kechib o'tishini va u yerda saklar bilan jang qilishni taklif qiladi. To'maris elchilari taklifi fors podshosi huzurida muhokama qilinadi va Kir maslahatchisi bo'lgan Lidiya hukmdori Krezning maslahati bo'yicha daryoni kechib o'tishga qaror qiladi. Bu yerda Kir II harbiy hiyla ishlatadi⁶.

⁴ Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. Ташкент. 2005. -С.109.

⁵ Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. Ташкент. 2005. -С.110.

⁶ Ахмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари: Қадимги замон ва ўрта асрлар. Тошкент. 2001.

Kir II ning hiylasi ish beradi. To‘marisning o‘g‘li Sparganiz tashlab ketilgan fors qo‘shinini yengib, o‘ljalar bilan ziyofat qiladilar. Spirtli ichimliklar natijasida uxlab qolgan massagetlar bilan birga Sparganiz ham asirga olinadi.

Kir II ning ayyorona harakatlari To‘marisning unga ikkinchi marta shartli maxsus elchilik jo‘natishiga sabab bo‘ladi. To‘maris bu elchiligida unga o‘g‘lini qaytarishni va massagetlar yurtidan qaytib ketishni talab qiladi: “Agar sen aytilgan ishni qilmasang, quyosh xudosi nomi bilan qasam ichamanki, seni qonga to‘ydiraman”⁷.

Keyingi voqealar Kir II ning To‘maris maslahatiga quloq solmaganligini ko‘rsatadi, Sparganiz esa sharmandalikka chiday olmay o‘z joniga qasd qiladi.

Shafqatsiz jang natijasida massagetlar g‘alaba qozonadilar, Kir II va qo‘shining katta qismi qirib tashlanadi. Jang maydonidan uning kallasini uzib kelganlarida, uni qonga to‘lgan meshga solib qo‘yadi. Shunday qilib, keltirilgan ma‘lumotlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ahamoniylar davrida Markaziy Osiyo qabila va qabila birlashmalari o‘rtasida o‘rnatilgan diplomatik munosabatlar beqaror xarakterda bo‘lib, asosan, og‘zaki tarzda olib borilgan. Buning sababi hali sak-masagetlarda yozuvning mavjud emasligi bilan tushuntiriladi.

Aftidan elchilik bilan shug‘ullangan maxsus kishilar yetkaziladigan xabarni yodlab olar edilar.

Ellinlarning Markaziy Osiyodagi siyosiy hukmronligi Miloddan avvalgi 330-327 yillarda Aleksandr Makedonskiyning bosqinchilik yurishlari bilan boshlangan, bu hukmronlik deyarli ikki yuz yil davom etib, Miloddan avvalgi II asr ikkinchi yarmida Yunon-Baqtriya davlatining qulaguniga qadar davom etgan.

Bu davrdagi diplomatik munosabatlarni ikki davrga bo‘lish mumkin:

- Birinchisi, Markaziy Osiyo xalqlarining Aleksandr Makedonskiy bilan munosabatlari davri;

- Ikkinchisi, Salavkiylar va Yunon-Baqtriya davlati tarkibiga kirgan janubiy hududlar o‘rtasidagi munosabatlar davri⁸.

Birinchi davr, ya‘ni Miloddan avvalgi 329-yil Aleksandrning Maroqandga yurishi davrida uning huzuriga skif, abiy, shu bilan birga yevropalik skiflardan elchilar keladi. Do‘stlik haqidagi bahona bilan Aleksandr ularga javob elchiligini jo‘natadi. Elchilikning asl maqsadi skif yerlarining tabiiy sharoiti, elchilikning asosiy maqsadi, xalqining sonini va harbiy qudratini aniqlash edi.

Keyingi yillarda Aleksandr Tanais – Sirdaryo bo‘yidagi Ustrushonaga yurish uyushtiradi, u yerda saklarga qarshi Aleksandriya Esxata (taxminan hozirgi Xo‘jand shahri yaqinida) shahrini qurdiradi. Shundan keyin, Aleksandr daryoning o‘ng qirg‘og‘idagi skiflarga yurish qilib, ularni mag‘lubiyatga uchratadi. Natijada skiflar Aleksandr huzuriga elchi jo‘natadilar. Undan noto‘g‘ri harakat uchun kechirim so‘rab, tinchlik sulhini tuzishni unga bo‘ysunishlarini aytadilar. Ammo, Aleksandr xushmuomalalik bilan ularga ishonishlari, lekin to‘liq g‘alaba qozonmaguncha harbiy harakatlarni davom ettirish haqidagi javobini aytadi. Miloddan avvalgi 328-yili Maroqandaga yevropalik skiflardan navbatdagi elchilik keladi. Skif elchilari uning tinchlik haqidagi taklifini podshohlariga yetkazganliklarini aytib, qimmatbaho sovg‘alar keltiradilar. Skiflar hukmdori o‘z

⁷ Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. Ташкент. 2005. –С.110.

⁸ История международных отношений. Под редакцией О.А.Колобова. Н.Новгород. Т. 1. 2001. С.257.

xatida qizini Aleksandrğa, skif aslzodalari qizlarini Aleksandrning “ishonchli do‘stlari”ga turmushga bermoqchiligi haqidagi taklifini bildiradi. Aleksandr esa, javob elchiligida taklifni nazokat bilan rad qiladi. Shu yili Aleksandrğa Markaziy Osiyodagi birinchi mustaqil davlat Xorazm hukmdori Frasmandan elchilik va yordam uchun bir yarim ming otliq askar jo‘natiladi⁹.

Farasman Aleksandrğa o‘z podsholigi haqida ma‘lumot berib, davlati chegarasida kolxlar va amonika qabilalari yashashini, ularga va Evksinsk (Qora) dengizi bo‘yida yashovchi boshqa qabilalarga qarshi harbiy ittifoq tuzishni taklif qiladi.

Aleksandr Farasmanga minnatdorchilik bildirib, javob maktubida bu yurishning vaqti emasligini va Hindistonga yurishgacha buni amalga oshira olmasligini, Elladaga qaytganidan keyin, Qora dengiz bo‘yidagi xalqlarga qarshi yurish qilishni taklif qiladi. Maroqanddagi uchrashuvdan so‘ng, Farasman Baqtriya hokimi Artabaz kuzatuvida yurtiga qaytadi.

Shunday qilib, diplomatik munosabatlarning birinchi davrida Markaziy Osiyo xalqlari va Aleksandr Makedonskiy o‘rtasida diplomatik munosabatlar masalasida tinchlik shartnomalari va harbiy ittifoqlar tuzish bilan tugallanadi. Istisno emaski, bundan oldinroq diplomatik munosabatlarni olib boruvchi maxsus kishilar guruhi shakllangan edi.

Ikkinchi davr (Miloddan avvalgi IV asr oxiri – II asr ikkinchi yarmi boshlari)da Markaziy Osiyo janubiy hududlarining ellin davlatlari Salavkiylar (miloddan avvalgi IV asr oxiri – III asr o‘rtalari) va Yunon-Baqtriya (Miloddan avvalgi III asr o‘rtalari – II asr ikkinchi yarmi boshlari) kiradi. Shuning bilan bu yerda ellinistik madaniyat ham tarqaladi. Bu davrda, ya‘ni Miloddan avvalgi III asr o‘rtalarida Markaziy Osiyoning janubiy-G‘arbiy hududida shu yerlik ko‘chmanchilardan iborat Parfiya davlati, Markaziy Osiyodagi ikki daryo oralig‘ida esa mustaqil Qang‘ va Dovon davlatlari tashkil topgan edi. Zarb etilgan tangalariga ko‘ra, Buxoro va Samarqand So‘g‘dida ham mustaqil hokimliklar tashkil topgan edi. Miloddan avvalgi IV asrda ahamoniylardan mustaqilligini olgan Xorazm ham kuchli davlat hisoblanar edi.

Bu davrda mavjud Yunon-Baqtriya davlati bilan birgalikda mahalliy davlat birlashmalari tashkil topishi ham davom etdi. Shubhasiz, bu davlatlar ma‘lum bir diplomatik munosabatlar va ittifoqlar tuzishni qo‘llab-quvvatlar edilar, afsuski, bu haqida yozma manbalarda hech qanday ma‘lumot saqlanib qolmagan.

Miloddan avvalgi 237-yil Yunon-Baqtriya hukmdori Diodot II va Parfiya hukmdori Tiridat o‘rtasida Markaziy Osiyoni qaytadan bo‘ysundirishga uringan va umumiy dushman Salavka II ga qarshi harbiy shartnoma va ittifoq tuziladi. Boshqa Yunon-Baqtriya hukmdori bilan tuzilgan shartnoma ham mavjud. Masalan, salavkiylar hukmdori Antiox III (Miloddan avvalgi 223-187 yy.) Miloddan avvalgi 208-yili Yunon-Baqtriya hukmdori Yevtidemga qarshi harbiy yurish uyushtiradi. Ushbu yurish Herirud daryosi bo‘yida Yunon-Baqtriya qo‘shinini yengish bilan tugallanadi. Miloddan avvalgi 206-yili ular o‘rtasida muzokaralar boshlanib, tinchlik sulhini tuzish bilan yakunlanadi. Unga ko‘ra, Yevtidem o‘zining harbiy fillarini Antiox III ga beradi va qisman unga bo‘ysunadi, lekin siyosiy mustaqilligini saqlab qoladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Markaziy Osiyo xalqlari qadimdan boshqa xalqlar bilan elchilik aloqalarini yo‘lga qo‘ya olgan, yuqoridagi misollar orqali ko‘rishimiz mumkinki Markaziy Osiyo xalqlarining diplomatik aloqalar olib borishda juda uzoq tarixiy tajribaga egadirlar.

⁹ Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. Ташкент. 2005. -С.112.

REFERENCES

1. Крушкол Ю.С. қадимги дунё тарихи. Тошкент. “Ўқитувчи”. 1974. Б. 288.
2. История международных отношений. Под редакцией О.А.Колобова. Н.Новгород. Т. 1. 2001. С.257.
3. Страны мира и международные организации: справочник. М.: 2004.
4. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари: Қадимги замон ва ўрта асрлар. Тошкент. 2001.
5. Ртвеладзе Э. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. Ташкент. 2005.
6. Холлиев А. Халқаро муносабатлар ва дипломатия тарихи (маърузалар тўплами). Тошкент. 2014.